

14-fevral – Zahiriddin Muhammad
Bobur tavallud topgan kun

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 6 (67275)
2020-yil 10-fevral

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

*O'n ikki yoshimda qutlab Andijon,
Meni shahzoda deb tan oldi jahon.
Barin «Vaqoe»da yozib qoldirdim,
Hayot har qadamda olsa imtihon!*

ZUKKOLARGA OMAD YOR BO'LSIN!

Aziz
o'quvchilar! Xabaringiz
bor, gazetamiz sahifasida berib
borilayotgan test va boshqotirmalar-
ning javobini to'g'ri topgan o'quvchi-
larga sovg'alar taqdim et-
yapmiz.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi
249-umumta'lim maktabining 7-«A»
sinf o'quvchilari Mubina Muhitdinova va
Olima Tolipova Hazrat Alisher Navoiy
ijodiga bag'ishlangan testlarga birin-
chilardan bo'lib to'g'ri javob topishdi.

Yunusobod tumanidagi
51-fransuz tiliga ixtisos-
lashtirilgan umumta'lim
maktabining 8-«V» sinf
o'quvchisi Aslzoda Baho-
dirova esa «Donishmand
shoir» topqirlik mashqida-
gi 24 ta savolga to'g'ri
javob topib, zukkolikda
barchaga o'rnak bo'ldi.
Aslzoda, shuningdek, rus,
ingliz, fransuz tillarida
bemalol so'zlasha oladi va
turli tanlovlar-u «Bilim-
lar bellashuvi»da doimo
g'oliblar safida.

BOBUR VA KABUTAR



Mirzo Bobur yoshligidan ziyrak bola bo'lib o'sibdi. Kunlardan bir kun Umarshayx Mirzo saroy ayonlari bilan qasrda o'tirgan ekan, bir kabutar uchib kelib, ayvon peshtoqiga qo'nibdi-da, «g'u-lu-g'u-lu-g'u-lu» qilaveribdi. Umarshayx Mirzo ayonlaridan «Kabutar ne deyur?» deb so'rabdi. Anchadan buyon urush ko'rmay, qilichlari qonsirab qolgan ayonlar:

– Oliy Hazrat, qilichlarni qindan sug'urmoq kerakdur, – deb javob beribdi.

Gapga qo'shilmay bir chek-kada jim o'tirgan Mirzo Bobur: «Yo'q, kabutar unday demaydur, u qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor xushxabarni keltirubdur», dedi. Umarshayx Mirzo kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni keltirib, oyog'idagi halqani qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi: Xatda: «Oliy Hazrat, qovun ayni pishgan

payti, kelib qo'l urib bersalar», deb yozilgan ekan.

Mirzo Boburning gapi to'g'ri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx Mirzo o'g'lidan:

«Bunchalik topqirilingizga bois nedur?» deb so'rabdi.

– Ota, – debdi Bobur, – bu kabutar-ga e'tibor qilmadingizmi, o'tgan yili qovun sayli xushxabarni xuddi ana shu jonivor xabar qilg'on erdi, kaminaning ko'zi kabutarning o'ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti ani tanidi va shu so'zni taxmin etdi, – deb javob beribdi.

Yosh Mirzo hushyorligi, topqiriligiga qoyil qolgan Umarshayx Mirzo ayonlarga qarab: «Qilichni emas, aqldrokni ishga solmoq muhimdir. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin», deb farmoyish beribdi.

Mansur IN'OMning «Najot chorbog'i» kitobidan olindi



O'quvchilarni bobomiz Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirish, ularga buyuk mutafakkirning g'azallari va ruboyilarini chuqur o'rgatish maqsadida ular uchun ajoyib navoiyxonlik kechasini tashkillashtirdik. Bu tadbirni esa Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida o'tkazishni lozim topdik. Shunday qilib, maktabimizning 6-«B» va 7-«B» sinf o'quvchilari ustozlari Barno Zokirova rahbarligida muzeyga tashrif buyurdilar.

NAVOIYXONLIK MUZEYDA DAVOM ETDI

«Navoiyni yod etib» mavzusidagi tadbirda muzey xodimlari hamda taniqli adabiyotshunos Fotima Ikromova qatnashdi. Yosh adabiyotshunoslar qiziqarli ma'lumotlarni tinglab, o'zlarini qiziqirgan savollarga javob olishdi.



Navbat muzey bo'ylab maroqli sayohatga yetganida, o'quvchilar shoirning hayot yo'li va yozgan kitoblari, qo'lyozmalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lishdi. Ijodiy kecha so'ngida esa o'zleri tayyorlab kelgan sahna ko'rinishi, mumtoz qo'shiqlar hamda Navoiyning ruboyi va g'azallarini yoddan aytib berdilar. O'quvchilarimizning bu tashrifidan hamda ularning iste'dodlaridan mamnun bo'lgan muzey ma'muriyati maktabimiz jamoasiga minnatdorchiilik bildirishdi. Biz ustozlar esa ko'zlagan maqsadimizga yetganimizdan baxtivor bo'ldik.

Feruza ISLOMOVA, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MENING TUYG'ULARIM

psixologiya fanining navbatdagi darsi ana shunday nomlandi

Bolalar maktabga ilk bor qadam qo'yganida o'qishga moslashish jarayoni murakkab kechganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5-sinfga (har bir fandan alohida o'qituvchilar dars o'ta boshlagach) moslashish jarayoni ham ularga biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin.



Yuqori sinf o'qituvchilari bilan munosabatlarga kirishishda, maktab qoidalariga moslashishida, darslarda o'zini tutishida maktab psixologi yordamga keladi. Aynan shu maqsadda 5-«A» sinfda «Mening tuyg'ularim» deb nomlangan navbatdagi trening mashg'ulotini o'tkazdim. Treningda 4 ta shart bajarildi. 1-shart – «Ism-lar-fazilatlar» deb nomlandi. Bu shartda o'quvchilar o'z ismlarining bosh harfiga moslab ijobiy sifat qo'shib aytdilar: Nigora-nazokatli,

Asadbek-aqlli va hokazo. 2-shart esa «Ranglar ta'rif» deb nomlandi. Bunda o'quvchilar doskadagi ko'rgazmada aks etgan turli ranglardan birini tanlaydi. Men o'quvchilar tanlagan ranglarga qarab, ularning xarakteriga xos ta'riflarni aytdim. 3-shartda «Kim birinchi?» o'yini o'tkazildi. 10 nafardan saflanib olgan o'quvchilar galma-gal kop-tokni tezlik bilan bir-birlariga uzatish bo'yicha bellashdilar. O'quvchilar jamoa tarzida topshiriqni juda tez va to'g'ri bajarishdi. «Mening tuyg'ularim» topshirig'ida o'quvchilar boshlang'ich sinfni tamomlab, o'rta sinf bosqichiga moslashishlari haqida

matn tuzadilar. Psixologiya fanidan insonda 8 ta ijobiy va 8 ta salbiy his-tuyg'ular borligi ma'lum. O'quvchilar ushbu 16 ta his-tuyg'ulardan: 1-xotirjamlik, 2-xursandchilik, 3-o'ziga ishonch, 4-minnatdorchiilik, 5-maktabga kelishni xohlash, 6-o'qituvchilarni hurmat qilish kabi tuyg'ularni, ya'ni 6 ta ijobiy his-tuyg'ularni tanladilar. Bu tanlov ularning yuqori sinfga moslashish jarayoni oson kechayotganidan dalolat berdi. Trening mashg'uloti o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Shahnoza ABDULLAYEVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 40-umumta'lim amaliyotchi psixologi



Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 23-DIUM o'quvchilari ustozlari Madina Baxshilloeva boshchiligida turli badiiy asarlar o'qishni sira kanda qilishmas ekan. Ushbu kitobxon do'stlaringiz sevimli bolalar adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning «Shirin qovunlar mamlakati» asarini o'qib, undan olgan taassurotlarini yozib yuborishibdi.

Deyarli har kuni ko'chalardagi turli banner va e'lonlarda, hattoki ommaviy axborot vositalarida ham imloviy xatolarga ko'zimiz tushadi.

MENDA TAKLIF BOR!

Televideniye orqali namoyish etilayotgan aksariyat reklamalarda g'aliz jumlar uchraydi. Oynayi jahonni esa millionlab insonlar tomosha qilishadi. Shu jumladan, bolalar ham. Olimlarning ta'kidlashicha, kattalar bir kunda 3000 ta ma'lumot, reklamalarni ko'rishayotgan



bo'lsa, bolalar bundan ikki baravar ko'p ma'lumotlarni qabul qilishar ekan. Demak, xato yozilgan har bir so'z biz bolalarni savodsizlik tomon yetaklayveradi. Buni qarangi, mana shu oddiy noto'g'ri yozilgan reklama yoki e'lonlar xalqning, xususan, o'quvchilar savodxonligining susayishiga, turli tillarni aralashitirib so'zlashishga sabab bo'lishi mumkin ekan.

Maktabimizda har chorak yakunida ona tili fanidan o'quvchilarga diktant yozdiriladi. Diktant yozayotgan chog'imda men ham ba'zida ikkilanib qolaman. Buntun sinfning yozma ishi tekshirilganida 35 nafar o'quvchidan 3-4 tasigina a'lo baho oladi. Bu esa juda past natija. Buning oldini olish uchun nima qilish kerak?

Bu borada menda bir taklif bor. Avvalo, maktab darsliklarida imloviy xatolarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ikkinchidan, xuddi xorijiy tillarni o'rgatishda o'quvchilar ikki guruhga bo'lingani kabi ona tili darsini ham shu tarzda o'tish lozim. Chunki ona tili muallimimiz Gulzoda Soatova 40 daqiqalik dars mobaynida na qoinda daftarchamizni, na ish daftaramizni, na uyga vazifalarimizni tekshirishga ulgurmaydilar.

Uchinchidan, imloviy xatolar bilan yozilgan e'lon va reklamalarni e'firga uzatish va bannerlarga ilishni nazorat qilish kerak. Agar bugun har bir inson kuniga 2-3 soat vaqtini internetdan ma'lumotlar olish uchun sarflayotganini hisobga olsak, ijtimoiy tarmoqlar orqali ham savodsizlikka qarshi kurashish lozim. Ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan «savodxon.uz» sayti esa bunda ko'makchi bo'la oladi.

Yaqinda internetda Nuriddin Egamovning ijtimoiy tarmoqlar orqali «Maqom-chellenj» o'tkazgani kabi «Diktant-chellenj» yoki «Diktant yozamiz» aksiyasini tashkil etish haqidagi taklifini o'qigandim. Men ham bu fikrni qo'llab-quvvatlayman.

Aziz, do'stlar, savodsizlikka qarshi birga kurashaylik!

Azizbek ABDUMALIKOV,
poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

YAXSHILIKKA CHORLAGAN ASAR

Bu dunyoda shunday bir hikmat bor: «Yomonlik hammaning qo'lidan keladi, yaxshilik qilish esa har kimning qo'lidan kelavermaydi.

TAASSUROTLARIM BIR OLAM

Men ham bu asarni o'qir ekanman, bosh qahramon Akbar Madumarov bilan birga sayohatga otlandim, go'yo. U tushkunlikka tushsa kuyunib, iblisni yengganida quvondim. Asardagi iblis obrazi insondagi yomon xulq-atvorning bir ko'rinishi. Uning ustidan g'alaba qozonganlar komillikka yetishadi.



Uni faqat ezgulikka intiluvchilar, qalbida yaxshilik niholi ungan insonlarga qila oladi». Bu fikrlarni keltirishimga sabab, sevimli asarlarimdan biri «Shirin qovunlar mamlakati» kitobi qahramonlarni meni hamisha yaxshilik qilishga undaydi. Ba'zan biz unutib qo'yadigan ana shu fazilatni tarannum etuvchi bu kitob yo'llarimizni hamisha mayoq bo'lib yoritсин!

Jasmina RASHIDOVA,
6-sinf o'quvchisi

Bu yo'lda Akbar-ga ustozlari Dar Daraja yordam beradi. U tadbaxonada yotganida, do'sti Hoshimjonning sehirli qalpoqchasi yordamga keladi. Qahramonimiz barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, to'siqlarni yengib, komillikka intiladi. Asar voqealari tushda kechgan holat talqinida ifodalansa-da, u bizga real hayotimizga ko'zgu tutgandek bo'ladi. Kitobdan olgan eng katta taassurotim shu bo'ldiki, ezgulik baribir yovuzlik, yomonlik ustidan g'alaba qozonadi.

Umida SOBIROVA,
6-sinf o'quvchisi

MARDLIKNI O'RGANDIM

Bu kitobni o'qish davomida Akbarning jasurligiga qoyil qoldim. U yosh bo'lishiga qaramay, barchaga qo'lidan kelganicha yordam beradi. Hatto onasi qamalib qolganida ham tushkunlikka tushmay, o'qish va izlanishda davom etadi. Shirin qovunlar mamlakatiga borishni istaganida, u yerdagi voqealarni hech bo'lmasa tushida boshidan kechiradi. Asar qahramonining qat'iyatiga juda havasim keldi. Men bu asar qahramonlaridan mardlikni o'rgandim.

Shohjahon MIRZOYEV,
7-sinf o'quvchisi

ROSTGO'Y QAHRAMON

Bu ertak-romanni maroq bilan o'qidim. Undagi menga eng yoqqan obraz Akbar bo'ldi. Bu qahramonning har qanday vaziyatda rostgo'yligiga havasim keldi. Rostgo'ylik esa uning qalbi pokligidan darak beradi, nazarimda. U ishlari yurishmaganida ham, turli sinovlarga duch kelganida ham tushkunlikka tushmay, ertangi kunga umid bilan boqadi, dadil qadam tashlaydi. Bu asarni o'qigan har bir o'quvchi sinovlardan qo'rqmaydigan, yolg'on gapirmaydigan bola bo'lishiga ishonaman.

Shahlo AHMADOVA,
7-sinf o'quvchisi

Maktabimizda ikki buyuk ajdodlarimiz – she'riyat mulkining sultoni mir Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi munosabati bilan adabiy kecha o'tkazildi.

AJDODLARGA EHTIROM

Unda biz 7–11-sinf o'quvchilari faol ishtirok etdik. Men sahnada shoir g'azallaridan birini ifodali o'qir ekanman, ko'z o'ngimda buyuk ajdodimizning o'ziga xos hayot yo'li gavdalangandek bo'ldi. Sinfdoshlarim Bobur, Humoyun Mirzo va Shayxulislom timsollarini mohirona yaratib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lishdi. 9-«B» sinf qizlari esa ikki buyuk bobomiz g'azallaridan tayyorlangan «guldasta»ni taqdim etishdi. 8-«A» sinf o'quvchisi Abdulaziz Abduraupov ijro etgan «Munojot» qo'shig'i va Nazokat Habibullayeva ijrosidagi raqs ham kechaga o'zgacha fayz bag'ishladi. Tadbirni tashkillashtirishga bosh bo'lgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Yulduz Azizova bizdan mamnun bo'ldilar. Ular rahbarlik qilayotgan «Qizlarjon» to'garagi a'zolarining go'zal chiqishlari tadbirga yakun yasadi.

Azimjon ANVAROV,
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi
315-umumta'lim maktabining 11-«A» sinf o'quvchisi

SO'Z TOPISHDA RAG'BAT OLDIM

Yaqinda sinfimizda rus tili fanidan «Nash dom» mavzusida ochiq dars bo'lib o'tdi.



Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarga ustozimiz Sanobar opa Yusupova rag'bat kartochkalarini topshirdilar. Men ham «So'z topish» o'yinida faol qatnashib, oltita kartochkani qo'lga kiritdim. Bundan tashqari, turli bellashuvlarda bizning guruhimiz g'olib bo'ldi. Darsning dam olish daqiqasida esa «Kuz» raqsini ijro etdik. Ustozimning mavzuni multimedia tarzida o'tishlari bizga juda yoqdi. Ochiq darsimizga mehmon bo'lib kelgan ota-onalarimiz bizning rus tilida burro-burro so'zlashimizdan mamnun bo'lishdi.

Ruxshona REYIMBOYEVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
19-umumta'lim maktabining
2-«A» sinf o'quvchisi

TARIX DARSI MUZEYDA BO'LDI

Kuni
kecha tarix fani ustozimiz Barno Ismoilova boshchiligida O'zbekiston tarixi Davlat muzeyiga sayohatga bordik.

O'zbekistondagi tarixiy-madaniy jarayonlar aks ettirilgan ko'rgazmalar, eksponatlar bilan yaqindan tanishdik.

Hozirgi kunda O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi eng yirik ilmiy-ma'rifiy markazlardan biri hisoblanib, u yerda 250 mingga yaqin eksponatlar mavjud ekan. Ular orasida numizmatika, arxeologiya, tangashunoslik va etnografiyaga oid ko'plab qimmatli jamlanmalar bor. Lekin bir vaqtlar behisob va nodir yodgorliklarimiz dunyoning boshqa muzeylariga olib ketilgan ekan. Ushbu yodgorliklarni o'z yurtimizga, muzeylarimizga

qaytarish har birimizning fuqarolik burchimiz ekanligini angladik.

Mohira MATYOQUBOVA,
Zokirjon ABDULLAYEV,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 157-umumta'lim maktabining
5-«A» sinf o'quvchilari



BARCHA FANLAR SEVIMLI

Men uchun hamma fanlar sevimli. Lekin zoologiyaga ishtiyoqim yanada kuchliroq.

O'qituvchimiz bu fanni bizga yanada tushunarliroq bo'lishi uchun hasharotlarni olib kelib, ularning ichki va tashqi tuzilishi haqida batafsil so'zlab beradilar. Yaqinda ochiq dars o'tkazdik.

Darsni kuzatish uchun Paxtakor tumanidan o'qituvchilar kelishdi. Ustozimiz baliqlar mavzusini a'lo darajada tushuntirib berdi. Biz mavzuga oid mantiqiy savollar tuzdik. So'ng, birin-ketin baliqlar haqida qiziqarli ma'lumotlar ayta boshladik. Orqa partalarda darsimizni kuzatib o'tirgan o'qituvchilar bizning faolligimizni, ustozimizning dars o'tish uslubini yuqori baholashdi.

Biz mehr bilan, bor bilimni ayamay saboq berayotgan zoologiya fani ustozimiz Sohiba Nazarovaga katta rahmat aytamiz.

Gavhar TUROBOVA,
Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi
6-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi



G'OLIBLARNING QUVONCHI CHEKSIZ

Seminarda o'quvchilar dutor, doira, rubob kabi milliy xalq cholg'u asboblari chalib, dil-rabo qo'shiqlar kuyladilar. Ishtirokchilarning sportning stol tennis, futbol, shaxmat-shashka, turnikda tortilish, brusda mashq bajarish turlari, shuningdek, kompyuter savodxonligi, she'r, g'azal aytish bo'yicha chiqishlari barchaga manzur bo'ldi. O'quvchi qizlarimizning 5 ta muhim tashabbus yuzasidan seminar tashkil etildi.

Farg'ona shahar Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 39-umumta'lim maktabida kuni kecha 5 ta muhim tashabbus yuzasidan seminar tashkil etildi.

Ahmadaliyeva g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qo'shiq aytish bo'yicha 4-sinf o'quvchisi Oxunjon Sirov g'olib bo'ldi. 11-sinf o'quvchilaridan Hulkaroy To'xtasinova stol

tennisi sport turida, turnikda tortilishda Umidjon Qodirov, brusda mashq qilishda Abdurahmon Ahmedov, shaxmat-shashka yo'nalishida 5-sinf o'quvchisi Elbek Mamasoliyev shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarildilar. Kompyuter texnologiyalari va

internetdan samarali foydalanishda 9-sinf o'quvchisi Sherbek Rustamov g'alaba nashidasini surdi. Yuzdan ortiq badiiy kitoblar mutolaa qilgan, kutubxonamizning eng faol foydalanuvchisi – 11-sinf o'quvchisi Durdona Ergasheva «Eng faol kitobxon» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. 8-sinf qizlari jamoasi texnologiya fanidan bajargan qo'l mehnati namunalari namoyish etib, barchaning olqishiga sazovor bo'lishdi. Bellashuv g'oliblari O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi Farg'ona shahar Kengashi tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Baxtiyor PARPIYEV,
Farg'ona shahridagi
39-umumta'lim maktabining
direktor o'rinbosari



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Zahiriddin Bobur was born in 1483 in Andijan, when he was 12 he became the ruler of Ferghana. He founded a centralized state in 1526 in India, which lasted more than three centuries.

Uzbek people are proud of the outstanding poet and brilliant scientist Babur's masterpieces, which still are the link of cultural relations between the peoples of Central Asia, Afghanistan and India. In these countries, subject of hundreds of scientific and literary works, movies are dedicated to our ingenious countryman.

Uzbekistan celebrates the birthday of the great poet and educator, a talented military leader and statesman Zahiriddin Muhammad Bobur on February 14. He made a significant contribution to the development of world science and art.



SINFINGIZGA YANGI O'QUVCHI KELDI...

Uni qanday kutib olasiz?

...Sabina o'qishini yangi maktabda davom ettirishini eshitdi-yu, kayfiyati tushib ketdi. Oyisiga yangi maktabga bormasligini, o'sha - o'zi o'rgangan dugonalari bilan birga o'qishini aytganida, onasi:

- Qizim, dadangning ishi tufayli boshqa joyga ko'chishga majburmiz, yangi maktab esa shundoqqina uyimizning oldida ekan, - dedi. Ertasi kuni Sabina onasi bilan birga maktabga yo'l oldi. Lekin...

Yangi maktabga bir oydan buyon qatnayapti hamki, o'ziga dugona topa olmaydi. Sinfidagi hamma qizlar bir-biri bilan ahil-inoq. Lekin Sabina ularning orasida doim ajralib qolaverdi. Qizlarga qo'shilay desa, ular buni istashmaydi, bundan xafa bo'lgan qizaloq uyiga har kuni yig'lab kelaverdi...

Bu manzara sizga yaxshi tanish... Sinfdoshlarning guruh-guruh bo'lib olishlari, «yangi»larni esa ajratib qo'yishlari yoqimsiz holat, albatta. Biz ushbu mavzuda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iro't tumanidagi 35-umumta'lim maktabi o'quvchilariga yuzlandik, ularning fikri bilan tanishib ko'ring-a...

Jasmina ABDIKARIMOVA,
4-sinf o'quvchisi:

- Men 2019-2020-o'quv yilida 35-umumta'lim maktabiga o'qishga keldim. Maktabga kelishdan oldin «Meni yolg'izlatib qo'yishsa-ya», deb juda qo'rqqandim. Biroz haya-jon ham bor edi. Ammo oradan vaqt o'tgach, yuqoridagi fikrim noto'g'ri ekanligiga amin bo'ldim. Ayni damda, barcha sinfdoshlarim bilan ahil-inoqmiz. Bunda sinf rahbarimiz Venera opa Narimbe-tovaning hissasi katta.



Dilnoza SAPURBAYEVA,
7-«A» sinf o'quvchisi:

- 5-sinfdan yangi maktabga kelganim-da, yuqoridagi holatga duch kelganman. «Yangi sinf» qizlari guruh-guruh bo'lib yurisharkan. Men ularga qo'shila olmay juda qiynalgandim. Tanaffuslarda yolg'iz yurardim. Maktabimizning «Qizlar kengashi» rahbari bu holni kuzatib yurgan ekan, darrov sinfimiz qizlarini yig'ib majlis o'tkazdi va ularga guruh-guruh bo'lib yurish yaxshi emasligini tushuntirdi. Shundan keyin men qizlar bilan birga yuradigan, suhbatlashadigan, ular bilan birga dars tayyorlaydigan bo'ldim. Buning uchun ustozlarimdan minnatdorman.

birga dars tayyorlaydigan bo'ldim. Buning uchun ustozlarimdan minnatdorman.

Oysha va Malak SUVONQULOVA,
2-«A» sinf o'quvchilari:

- Dadamning ishi tufayli biz egizaklar Buxoro viloyati-dan Qo'ng'iro't tumaniga ko'chib keldik. Yangi maktabga kelganimizda, ustozlar va o'quvchilar bizni yaxshi kutib olishdi. Maktab rahbari ham yaxshi inson ekan. Ayniqsa, sinf rahbarimiz Umit opa Ablamitova mehribon va jonkuyar ekanlar. Yangi sinfdoshlarimiz bilan tezda chiqishib ketdik. Buning uchun o'qituvchimiz va sinfdoshlarimizdan juda xursandmiz.

Aziz o'quvchilar, sizning sinfingizga ham yangi o'quvchilar kelganmi? Ular bilan do'st tutinishga ulgurdingizmi? Ulgurmag-an bo'lsangiz, shu bugunoq ishga kirishing. Sinfdoshingizni o'z safingizga qo'shing, maqola yuzasidan esa fikr-mulohaza-laringizni kutib qolamiz.



DESCRIBING PEOPLE

Adjectives for Describing General Appearance

- Beautiful
- Elegant
- Cute
- Gorgeous
- Attractive
- Pretty
- Funny
- Handsome
- Ugly

Describing someone's Build:

- Well-Built
- Plump
- Thin
- Fat
- Slim



Describing Someone's Height

- Short
- Medium-height
- Tall



Describing Someone's Age

- Young
- Middle-aged
- Old



ANDIJONNING SHOIR FARZANDI

Dilga tamal toshi so'zingiz,
Ona yurtim aziz dilbandi.
Bizni shoir etgan o'zingiz,
Andijonning shoir farzandi.

Sarkardalik sizga sharaf-shon,
Buyuk kunda, buyuk zamonda.
Sizga beshik bo'lgan ANDIJON,
Yashnayapti yorug' jahonda.

Bobur bobom qoldirgan meros,
Tojmahallar dunyoda e'zoz.
Bobur bobo bizlar siz bilan,
Qancha faxrlansak, shuncha oz.

Nargiza BUVAJONOVA,
Andijon shahar, Muhammad Yusuf
ijod maktabining 10-sinf o'quvchisi

ONA TILIM

Ona desam, onamdeksan, ona tilim,
Ota desam, otamdeksan, ona tilim.
Ustoz desam, ustozimdek mehribonim,
Sen men uchun qadrlisan, ona tilim.

Sen borsanki, men bulbuldek sayragayman,
Sen borsanki, ozod, obod yayragayman.
Bor so'zlarim yuragimda asragayman,
Sen men uchun qadrlisan, ona tilim.

Lola EGAMNAZAROVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
51-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf
o'quvchisi

VATANGA YURAGING AYLIGIN QALQON

Ozod Vatan uzra porladi quyosh,
Bag'rikeng diyorsan bo'lding sen sirdosh.
Mehr-muhabbatdan yaralgan bardosh,
Vatanga yuraging aylagin qalqon,
Ey Vatan o'g'lioni, senga sharaf-shon!

Sergakdir yoz-u qish yilning to'rt fasli,
Vatanga muhabbat kerakdir asli.
Tarixing, o'tmishing Temuriy nasli,
Vatanga yuraging aylagin qalqon,
Ey Vatan o'g'lioni, senga sharaf-shon!

Yurakda, o'yingda bo'lsin Vatanning,
Kuyulasang kuyingda bo'lsin Vatanning.
Ostona, uyingda bo'lsin Vatanning,
Vatanga yuraging aylagin qalqon,
Ey Vatan o'g'lioni, senga sharaf-shon!

Xurshida BOYMRIZAYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumanidagi
75-umumta'lim
maktabining
8-sinf o'quvchisi



HAZRATI BOBUR

*Boshimni olib, ey Bobur,
ayoq yetgancha ketgaymen.*

Zahiriddin Muhammad BOBUR

Kimga dunyo, kimga ko'ngil shoh ekan,
Dunyo deganlari alam, oh ekan.
Odamga umidi do'st, hamroh ekan,
Qayon ketmoqdasiz, Hazrati Bobur?

lymonni dilida tug'day tutgan zot,
Orini tog'lardan baland etgan zot.
Otning ustida ham ash'or bitgan zot,
Qayon ketmoqdasiz, Hazrati Bobur?

Hayot boshdan-oyoq bepoyon tilsim,
Goh og'a sotishin kim o'ylab bilsin.
Qalbi qulf kaslarga Xudo bas kelsin,
Qayon ketmoqdasiz, Hazrati Bobur?

Shu chog' yolg'iz qo'ygin habibi hamdam,
Ko'ngil zor qaqshasa kim qilgay motam.
Gohida o'zidan bezarkan odam,
Qayon ketmoqdasiz, Hazrati Bobur?

Siz birlan bir mumtoz mahallar ketdi,
Ishq bunyod etgan Tojmahallar ketdi.
Humoyun, Komron-u Akbarlar ketdi,
Qayon ketmoqdasiz, Hazrati Bobur?

Yetar, bas, ko'nglimga ketgayman men ham,
Bir go'zal olamga yetgayman men ham.
Shu yurt deb, shu el deb o'tgayman men ham,
Qayon ketmoqdasiz, Hazrati Bobur?

G'ayrat MAJID

UCHRASHUV DARS

Maktabimiz kutubxonasida ajoyib uchrashuvlar o'tkazish an'anaga aylangan. Besh tashabbus doirasida tashkil etilgan navbatdagi tadbirimizni maktab kutubxonachisi Zuhra Yuldasheva ochib berar ekan, o'quvchilarga uchrashuv mehmoni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Ubaydulla Saydaliyevni tanishtirdi.



Ijodiy uchrashuvda musavvir o'quvchilarga san'atga qanday kirib kelgani va bugungi kundagi yutuqlari haqida so'zlab berdi. Suhbat davomida ijodkor bolajonlarga kitobxonlikni ham targ'ib etib, adiblarning yangi asarlarini o'qib, darslarda ustozlar bilan muhokama qilishni tavsiya etdi. Kelajakda rassom bo'lish orzusidagi o'quvchilarga esa tasviriy san'at darsida o'qituvchidan imkon boricha ko'proq musavvirlikning sir-asrorlarini o'rganish, qo'shimcha saboqlar olish lozimligi haqida maslahat berdi.

Shundan so'ng, maktabimizdagi yosh rassomlar aziz mehmonga o'z ijod namunalari ko'rsatishdi. Musavvir ularga yo'l-yo'riq ko'rsatar ekan, tadbir ajoyib darsga aylanib ketdi. Shu bois, bu uchrashuv o'quvchilarda katta taassurot qoldirib, ularning san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortirdi.

Jamila SAYDALIYEVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 235-umumta'lim
maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi

Saidjon har kuni yarim tanga-cha kompyuterda o'yin o'ynaydi. Bu paytda uning xonasidagi chiroq-u televizor ham yoniq turadi. Onasi unga har doim bir gapni takrorlaydi:

Tunda uning ko'ziga kompyuter o'yinlaridagi vahshiy qahramonlar ko'rina boshlabdi. Boshini ko'rpa-ga o'rab, terga botib, tonggacha uxlo olmay chiqibdi. Shu tariqa ikki kun o'tibdi. Nihoyat, usta elektr hisoblagichni tuzatibdi.

Shu kundan boshlab Saidjon elektr tokini tejash lozimligini tushunib, kompyuter o'yinlarini ham o'ynamay-



(Hikoya)

SAIDJONNING XULOSASI

– Bolam, bo'ldi, uxla endi, ko'zing og'riydi. Chiroqni, kompyuteri ham o'chir, qara, bir o'zing qancha elektr tokini sarflayapsan...

Saidjonning esa javobi tayin:
– Hozir, o'yijon, hozir, – deydi-yu, o'yinni davom ettiraveradi...

Shunday kunlarning birida ularning uyidagi elektr hisoblagich buzilib qolibdi. Xonadonda ikki kun chiroq yonmay, kechqurulari uni vahima bosa boshlabdi.

digan, aksincha, undan unumli foydalanadigan bo'libdi.

Aziz tengdoshlar, biz ham bu voqeadan o'zimizga kerakli xulosa chiqarib olaylik, tabiiyat ne'matlarining qadriga yetaylik!

Husniddin EGAMBERDIYEV,
Xorazm viloyati, Xonqa
tumanidagi 40-umumta'lim
maktabining 4-«B» sinf
o'quvchisi

SAN'ATIMIZ FIDOYILARI



Aziz o'quvchi! Siz sevib o'qiydigan gazetasigizning «Pazanda qiz»i bugun 50 yoshga to'ldi. Pazandalig-u ozodalikdan boshlab, uyni saranjom-sarishta tutish borasidagi maslahatlarini nafaqat siz - chaqqon, orasta qizlardan, balki biz jamoadoshlaridan ham ayamaydigan kuyunchak opamizga, «Yarim asrlik yoshingiz muborak bo'lsin!», deymiz.

OBOD UYNING ERKA BEKASI!

Uzoq yillar mobaynida bir jamoada mehnat qilib, dono o'g'itlari, maslahatlari tufayli ro'zg'or tutish borasida taylagina yutuqlarga erishib kelayotganimiz uchun ulardan behad minnatdormiz.

Ayol uchun eng katta maqom bu Onalik maqomidir. Ona buyuk zot, farzandini butun borlig'i bilan, jon-u dili bilan sevadi, ardoqlaydi. Bolasining oyog'iga tikan kirsa bormi, onaning ming joni ozor chekadi. Doimo qo'li duoda, farzandlarimni o'z panohingda asra, Oллоhim, deya kun-u tun niyat qiladi. Dilbandi uchun har qanday ishga qodir bo'ladi. Hayot yo'llarida ular qiynalishmasin, qoqilishmasin, deya bor imkoniyatlarini ishga soladi. Shirin jonini koyitadi. Ana shunday fidoyi, jonkuyar, mehnatkash onalardan biri bu bizning Nargizaxon Abdullayevadir.

Nargizaxon, mana 21 yildirki, «Tong yulduzi» gazetasida sidqidildan mehnat qilib kelmoqda. Bolajonlarga xizmat qilishdan-da buyukroq ish bo'lmasa kerak, dunyoda. Chunki bolalik olami beg'uborlikni, beg'arazlikni talab etadi. Bizning hamkasbimiz ana shunday to'g'riso'z, g'ayratli, shijoatli xodimlardan biri. U gazetasining sifatli, o'qishli, qiziqarli hamda bexato chiqishi uchun bor bilimni ayamaydi, o'z ishiga sidqidildan, mas'uliyat bilan yondashadi.

U tahririyatimizning sadoqatli, jonkuyar xodimi, har bir ishni yurak-yuragidan bajarishga o'rgangan. Va boshqalarni ham shunday ishlashga o'rgatadi. Yosh qizlarni sarishta, oqila beka bo'lishga undaydi. Uning gazeta sahifasi orqali berib boriladigan «Pazanda qizga» rukni ostidagi maslahatlari yosh qizlarga shirin taomlar, salatlar tayyorlashda qo'l keladi. Baxtli bir oilaning jonkuyar bekasi bo'lgan Nargizaxon ikki nafar o'g'lini bir-biriga mehr-oqibatli, ahil, inoq qilib voyaga yetkazdi. Hozirgi kunda Muhammadamin ismli shirindan shakar nabiraning buvijonisi, ikki kelinning mehribon oyijonisidir.

Biz Nargizaxon opangizga ko'p ming sonli mushtariylarimiz nomidan mustahkam sog'lik tilaymiz:

Tonglarini «Tong yulduzi» olib ketdi, Bolalikni ardog'ida qolib ketdi, Nargizaning qalamidan yog'ilgan nur, O'quvchini to'g'ri yo'lga solib ketdi!

TAHRIRIYATDAN

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 316-umumta'lim maktabida «Teatr va yoshlar» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Unda xalqimiz suygan san'atkorlar - O'zbek milliy akademik drama teatri aktyori Mahmud Ismoilov va Gulchehra Ibrohimbekova mehmon bo'ldilar.

Dastlab maktabning 1-«D» sinf o'quvchilari tomonidan hind xalq qo'shig'i va raqslari ijro etildi. Sevimli aktrisimiz Gulchehra opa Ibrohimbekova o'quvchilarning ijrolaridan xursand bo'ldi va Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani asosida sahnalashtirilgan spektaklidan o'zi ijro etgan - O'zbekoyim monologidan aytib berdilar.

So'z navbati Mahmud Ismoilovga berildi. Ustoz san'atkorimiz jumladan shunday dedi:

– Bizlarning ham shu darajaga yetishimizda qanchadan qancha ustozlarning mehnati singmagan deysiz. Ba'zan a'lo baho olganimizda suyunganmiz, ba'zida past baho olib, tushkunlikka tushib qolgan vaqtlarimiz ham bo'lgan. Lekin odamzod hech qachon intilishdan, o'z ustida ishlashdan to'xtamasligi kerak. Ba'zida ustozlarimiz dakki ham berishgan. Endi o'ylab qarasam, bunday tanbehlar faqat bizning foydamizga xizmat qilgan ekan. Biz ustozlarimizdan bir umr minnatdormiz va ular oldida doimo qarzdorligimizni his qilib yashaymiz.

Tadbirada san'atkorlarimizning maroqli va tarbiyaviy hikoyalari, ahamiyatga molik o'g'itlaridan o'quvchilarning qalbida aktyorlikka havas uyg'ongan bo'lsa, ne ajab?!

Muzaffar AHMEDOV



Zuhra NISHONOVA olgan suratlar

SOHIR OVOZ SOHIBASI!

Aslida, har bir inson qandaydir darajada qobiliyatli bo'ladi. Ana shu qobiliyat, iste'dodni rivojlantirish, tarbiyalash uning mehnati-yu izlanishiga, u yashayotgan muhitga, yaqinlarining e'tiboriga bog'liq.

Tengdoshingiz – Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Gulshanam Jo'rayeva san'atsevar oilada kamol topayapti. Uni 2-sinfaligidayoq bobosi va buvijonisi musiqa maktabiga yetaklab borishgan edi. Mazkur ta'lim dargohida ustoz Baxtiyor Nurillayevdan an'anaviy maqom xonandaligi yo'nalishida saboq olgan qizaloq ancha yutuqlarga erishdi.


Hozirgi kungacha ikki marta «Kamalak» yulduzlari» bolalar festivalida 1-o'rinni egallab, «Yulduzcha» televizion vokalshou tanlovining ikkinchi



va uchinchi mavsum ishtirokchisiga aylandi. Iste'dodli Gulshanam o'tgan yili Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan an'anaviy XI Xalqaro Mug'om festivalida 37 davlatdan kelgan ishtirokchilar orasida 2-o'rinni egallab qaytdi. Festival bosh hakamining «Bu katta yurakli qizaloq sahna uchun yaralgandek, go'yo», degan e'tirofi barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.

QIZLARXON

«SHOH VA SHOIR MADHI» TOPQIRLIK MASHQI



Eniga: 1. Boburning she'riy janrda yozilgan risola asari. 2. Bobur umr yo'ldoshining otasi, Mo'g'uliston xoni, Toshkent shahri hokimi. 3. Bobur bir muncha davr hukmdorlik qilgan tarixiy shahar. 4. Xoja Ahror Valiyning Bobur tomonidan she'riy holda tarjima qilingan nasriy asari. 5. Bobur ixlos qo'yib obod qilgan, keyinchalik «Bog'i Bobur» deb atalgan Kobuldagi tarixiy bog'. 6. Bobur Mirzoning otasi, temuriyozda hukmdor. 7. Bobur saroyida xizmat qilgan tarixchi. 8. Shoh va shoir tavallud topgan maskan. 9. To'rt misradan iborat, tugal ma'no

ifodalovchi mustaqil she'r. 10. Yosh hind rojasining onasi farzandini asrab qolgan uchun Humoyunga tortiq qilgan, davrining eng qimmatbaho olmosning nomi. 11. O'rta asr sharqida birinchi tarixchi ayol, Boburning qizi Gulbadanbegim asari. 12. Yozuvchi «Boburiynoma», «Boburning tushlari» asarlari muallifi. 13. Shoirning aruz vazniga bag'ishlangan asari. 14. Bobur onasining ismi. 15. «Bobur» teleserialida shoir g'azallari bilan ashulalar ijro etgan xonanda, shoh va shoir nomidagi xalqaro mukofot sohibi. 16. Boburning farzandi, zamonasining

yetuk shoiri. 17. Boburning vasiyatiga ko'ra maqbara o'rnatilgan shahar. 18. Bobur ustoz deb bilgan mumtoz shoir, mutafakkir. 19. Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidagi Tohirning sevgilisi. 20. Sharq mumtoz she'riyatiga xos vazn. 21. «Boburnoma» asarida ma'lumotlar bayon etilgan viloyat.

Endi shaklning ajratilgan kataklardagi harflarni bo'yiga yo'nalishida o'qish bilan Z. Mashrabov va S. Shokarimovlarning shoh va shoirga bag'ishlangan asari nomini bilib oling.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

TEST VA BOSHQOTIRMA JAVOBLARINI TOPISHGA SHOSHILING. SOVG'ALAR SIZNI KUTMOQDA.



1. Bobur necha yoshida Navoiydan maktub oladi?

- A) 15;
B) 16;
D) 17.

2. Bobur «Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kim kishi mundoqqa muvaffaq bo'l-mish bo'lg'ay» deb kimga ta'rif bergan?

- A) Navoiyga;
B) Husayn Boyqaroga;
D) Shayboniyxonga.

3. Bobur qaysi tillarda irod qilgan?

- A) turkiy va arabiy;
B) turkiy;
D) turkiy va forsiy.

4. «Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi, Ne ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi»...

Boburning ushbu ruboyisida qanday she'riy san'at qo'llangan?

- A) tazod;
B) mubolag'a;
D) tajnis.

5. «... U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtovli xislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi. Ushbu barcha fazilatlaridan shijoat va muruvvati ustun turardi. Turkiy she'rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur darajada yozgan emas». Boburga ushbu ta'rifni kim bergan?

- A) Eduard Xolden;
B) Javoharlar' Neru;
D) Mirzo Muhammad Haydar.

N. NAZAROVA tayyorladi

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV

Rassom
Feruza KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMI bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manziliimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 5179
Buyurtma - V 4056

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taqab.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08